



BUYRUQ

20 26 yil avgust oyning "19" kuni

№ 87-D

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim,
fan va innovatsiyalar vazirligining
2026 yil 11 avgustdagi 337-son
buyrug'i ijrosini ta'minlash
to'g'risida

O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026 yil 11 avgustdagi "O'zbekiston Respublikasi davlat budjeti mablag'lari hisobiga stajyor-tadqiqotchilik, tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qitish bo'yicha 2027-yil uchun qabul kvotalarini tasdiqlash to'g'risida"gi 337-son buyrug'i ijrosini ta'minlash maqsadida

BUYURAMAN:

- O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2026 yil 11 avgustdagi 337-son buyrug'i ijro uchun qabul qilinsin.
- Tibbiyot xodimlarining kasbiy malakasini rivojlantirish markazida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2027-yil uchun tayanch doktorantura, doktoranturada o'qitish bo'yicha ixtisosliklar kesimida tasdiqlangan qabul kvotasi bo'yicha tanlov e'lon qilinsin.

T/r	Ixtisoslik shifri va nomi	O'rinlar taqsimoti	
		Tayanch doktorantura	Doktorantura
1	14.00.08-oftalmologiya	2	1
2	14.00.09-pediatrica	1	
3	14.00.25-klinik-laborator va funksional diagnostika	2	
4	14.00.28-neyroxirurgiya	1	1
5	14.00.35-bolalar xirurgiyasi	1	
6	14.00.37-anesteziologiya va reanimatologiya	1	
7	14.00.42-pulmonologiya	2	1

3. O'zbekiston Respublikasi Davlat budjeti mablag'lari hisobidan 2027-yil uchun tayanch doktorantura va doktoranturaga qabul qilish bo'yicha qabul komissiyasi quyidagi tartibda tasdiqlansin:

Rais – X.A.Akilov – Markaz direktori, t.f.d., professor,

Rais o'rinbosari – U.F.Nasirova – Direktorning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari, t.f.d., professor

Kotiba – H.U.Shofayziyeva – Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlar tayyorlash bo'limi boshlig'i

4. 2027-yil uchun ajratilgan qabul kvotalarini to'liq o'zlashtirish yuzasidan targ'ibot olib borish choralari ko'rilsin (H.U.Shofayziyeva, I.X.Raxmonov, tegishli kafedra mudirlari);

5. **joriy yil 15-sentabrdan 15-oktabrga qadar** tayanch doktorantura va doktoranturaga talabgorlardan **Yagona elektron tizimi** orqali qabul jarayonlari tashkil etilsin (H.U.Shofayziyeva);

6. talabgorlar tomonidan kelib tushgan hujjatlarni hamda ularning talab etilgan xorijiy tillarni bilish darajasini belgilovchi milliy yoki unga mos darajadagi xalqaro sertifikatlar haqqoniyligi **3 kun muddatda** (qabulning yakuniy sanasidan o'tmagan holda) ko'rib chiqilishi ta'minlansin (H.U.Shofayziyeva);

7. talabgorlardan hujjatlarni qabul qilish va ularni o'qishga qabul qilish jarayonlari Oliy ta'limdan keyingi ta'lim to'g'risida Nizom talablariga qat'iy amal qilgan holda amalga oshirilsin (O'zbekiston Respublikasi Huquqni muhofaza qilish akademiyasi va O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Davlat siyosati va boshqaruvi akademiyasi bundan mustasno);

8. tayanch doktorantura va doktoranturaga kirish imtihonlari yoki suhbat jarayonlarini **video kuzatuv ostida (onlayn translyatsiya)** o'tkazish uchun zarur choralar ko'rilsin (I.X.Raxmonov);

9. ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklarga talabgorlarni qabul qilish kirish imtihoni o'rniga **ilmiy tadqiqot ishi taqdimoti asosida** amalga oshirilsin;

10. ilmiy tadqiqot ishi taqdimotiga qo'yiladigan talablar soha xususiyatlarini inobatga olgan holda ishlab chiqilsin;

11. **2026-yil 1-sentabrga qadar** ixtisosliklar bo'yicha kirish imtihonlari va suhbatlar dasturlari hamda ilmiy tadqiqot ishi taqdimotiga qo'yiladigan talablar Markaz rasmiy veb saytida hamda ijtimoiy tarmoqlardagi sahifalarida e'lon qilinsin (I.X.Raxmonov);

12. kirish imtihonlari va suhbat natijalariga ko'ra tayanch doktorantura va doktoranturaga o'qishga qabul qilish bo'yicha joriy yil 5-dekabrgacha bo'lgan muddatda Markaz direktori buyrug'i rasmiylashtirilishi va 5 kundan o'tmagan muddatda **Yagona elektron tizimiga** yuklanishini ta'minlansin (H.U.Shofayziyeva).

13. 2027-yil uchun qabuldan boshlab ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklarga qabul qilingan doktorantlarga bazaviy stipendiyaning 1,7 baravari miqdorida oshirilgan stipendiya to'lansin (R.N.Mamadiyeva, M.M.Kurakboyev):

Ilmiy kadrlar tayyorlashning ustuvor yo'nalishlariga oid ixtisosliklar nomi	Tayanch doktorantura	Doktorantura
14.00.08-ofthalmologiya	2	1
14.00.09-pediatriya	1	
14.00.25-klinik-laborator va funksional diagnostika	2	
14.00.28-neyroxirurgiya	1	1
14.00.35-bolalar xirurgiyasi	1	
14.00.37-anesteziologiya va reanimatologiya	1	
14.00.42-pulmonologiya	2	1

14. 2027-yil uchun tayanch doktoranturaga qabul qilingan doktorantlarga birinchi o'quv yilida sohaviy maxsus fanlar, ilmiy tadqiqot metodologiyasi va akademik yozish, statistika va ma'lumotlar tahlili kabi fanlar bo'yicha o'quv mashg'ulotlari tashkil etilsin. (N.N.Fayziyeva, G.Z.Aripxodjayeva, G.X.Xamrayeva, A.K.Xamrayev)

15. O'quv mashg'ulotlari o'tkazganlik uchun professor-o'qituvchilarga mehnatga soatbay haq to'lashning qonunchilikda belgilangan tartibida O'zbekiston Respublikasi Davlat budjetidan ajratilgan mablag'lar hisobidan amalga oshirilsin (R.N.Mamadiyeva, M.M.Kurakboyev).

16. ilmiy rahbarga doktorant yoki mustaqil izlanuvchining ixtisosligiga va tadqiqoy yo'nalishiga mos fan tarmog'ida ilmiy-tadqiqot faoliyatini amalga oshirish bo'yicha tegishli ilmiy tajribaga ega bo'lish talabi joriy etilsin;

17. 2027-yil uchun qabuldan boshlab tayanch doktoranturaga qabul qilingan o'z vaqtida himoya qilgan doktorantning ilmiy rahbariga Scopus yoki Web of Science ma'lumotlar bazasidagi Xirsh indeksi bo'yicha ko'rsatkichi 5 dan kam bo'lganda (0 dan yuqori) mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 40 baravarigacha, 5 dan yuqori bo'lgan ilmiy rahbarga mehnatga haq to'lashning eng kam miqdorining 80 baravarigacha miqdorida bir martalik rag'batlantiruvchi to'lov to'lash tizimi yo'lga qo'yilsin (R.N.Mamadiyeva, M.M.Kurakboyev).

18. Mazkur buyruq ijrosining nazorati direktorning ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha o'rinbosari U.F.Nasirova zimmasiga yuklansin.

Direktor, professor

X.A.Akilov